

MILLIY QADRIYATLARNING DEMOKRATIK JAMIYAT QURISHDA TUTGAN O'RNI

Kenjayeva Sevinch Shamsiddin qizi

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti Tarix fakulteti
Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi yo'nalishi 3-bosqich talabasi

Nigmanova Umida Bahramovna

Ilmiy rahbar:

Nizomiy nomidagi TDPU Ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi kafedrasi dotsenti,
Pedagogika fanlari falsafa doktori

ANNOTASIYA

Ushbu maqolada demokratik jamiyat qurishda milliy va umuminsoniy qadriyatlarning o'rni, shuningdek, milliy va umuminsoniy qadriyatlarning mazmun-mohiyati, konstitusiyamizda millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglik g'oyalarining mustahkamlab qo'yilganligi borasida so'z boradi.

Kalit so'zlar: qadriyatlар, milliy qadriyatlар, umuminsoniy qadriyatlар demokratik jamiyat.

Bilamizki, har bir millat o'z urf-odat, an'ana va qadriyatlariiga ega. Ushbu an'ana va qadriyatlар har bir mamlakat, har bir xalq rivojida, shuningdek, demokratik jamiyatni barpo etishda muhim o'rin tutadi. Mustaqillik yillarida milliy qadriyatlarning demokratik jamiyat qurishdagi tutgan o'rnini aniqlash borasidagi ilmiy izlanishlar hamda, amaliyot bilan bog'liq bo'lgan muammolar davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Sababi, biron-bir jamiyat ma'naviy imkoniyatlarini to'la namoyon etmay turib, fuqarolar ongida ma'naviy va axloqiy qadriyatlarni shakllantirmay hamda mustahkamlamay turib o'z istiqbolini tasavvur eta olmaydi.

Muhtaram birinchi birinchi prezident I.A.Karimov alohida va bir necha marta ta'kidlab kelmoqda. "Mustaqillik yillarida eng katta qo'lga kiritgan yutuqlarimizdan biri tarixiy, milliy va axloqiy qadriyat hamda an'analarning, muqaddas dinimizning jamiyatni ma'naviy yuksalishidagi O'mi va ahamiyatini qayta tiklanganligidir. Ayni zamonda, tajovuzkor aqidaparast kuchlar islam dini xalqimiz uchun muqaddas qadriyat ekanligidan foydalanib, O'zbekistonni demokratik, ma'rifiy taraqqiyot yo'lidan og'dirishga intilmoqdalar", - deya ta'kidlaydilar.

"Qadriyat" atamasi o'zbek tiliga arabcha "Qadri" so'zidan kirib kelgan bo'lib, bugungi kunda bu tushuncha "borliq va jamiyatdagi biror bir narsa va hodisaning

kishilar o‘rtasidagi o‘zaro ijtimoiy munosabatlardagi tutgan muhim ahamiyatni ifoda etish uchun qo‘llanilmoqda”. Qadriyatlar mahalliy, milliy, mintaqaviy va umuminsoniy shakllarda namoyon bo‘ladi. Demokratik jamiyat barpo etishda milliy va umuminsoniy qadriyatlarning o‘rni beqiyos bo‘lib, O‘zbekistonda adolatli demokratik jamiyat barpo etishda milliy va umuminsoniy qadriyatlarni ma’lum ma’noda umumbashariy ahamiyat kasb etadi. Qadriyat jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy, ma’naviy taraqqiyotning mahsulidir. Shu boisdan ham qadriyatlarda o‘sha zamonning ruhi, imkoniyatlari, o‘sha zamonda yashayotgan odamlarning orzu-umidlari, istaklari, talab va ehtiyojlarida o‘z ifodasini topadi. Vaqtlar o‘tishi bilan qadriyatlarning mazmun-mohiyati ham o‘zgarib boradi.

Milliy qadriyatlarni millatning tarixi, yashash tarzi, kelajagi, uni tashkil etgan avlodlar, ijtimoiy qatlamlar, milliy ong, til, ma’naviyat hamda madaniyat bilan uzviy bog‘liq holda namoyon bo‘ladi. Milliy qadriyatlarning negizini an’analar, urf-odatlar, rasm-rusmlar tashkil etadi. Boshqacha aytganda milliy qadriyatlarni millatning o‘tmishi va buguni bilan bog‘liq. Milliy qadriyatlarni tiklash – ularga hozirgi zamonga mos yangicha mazmun ato etishdir.

Umuminsoniy qadriyat deganda jamiyat a’zolarining hammasi uchun umumiyligi ahamiyatga ega bo‘lgan va har bir shaxsning hayotida ro‘y berayotgan o‘zgarishlarga ijobiy ta’sir ko‘rsatadigan, kishilarning xatti-harakati, amaliy faoliyati, yashash tarzi, boshqalarga munosabati ham umuminsoniy qadriyatlarning mezoni sifatida baholanadi. Umuminsoniy qadriyatlarning asosiy vazifasi olamni bilish va uni amaliy o‘zgartirishning muhim omilidir. Bizningcha, umuminsoniy qadriyatlarni tushunchasi butun jamiyat ahamiyatiga ega bo‘lgan, insoniyatning mavjudligi, o‘tmishi, buguni va kelajagini, yashashning asosiy yo‘nalishlari, qonun-qoidalarini, talab va tartiblarini, odamlarning eng azaliy orzuumidlari va ideallarini o‘zida aks ettiradigan qadriyatlarning umumiyligi shakllarini ifodalaydi.

Fuqarolik jamiyatini barpo etishda umuminsoniy qadriyatlarning namoyon bo‘lish xususiyatlari nisbiy xarakterga ega bo‘lib, uning bu xususiyati, ya’ni nisbiylik har doim ham ko‘zga tashlanavermaydi. Shunga ko‘ra demokratik tamoyillarni milliy qadriyatlarni bilan uyg‘unlashtirishda uning quyidagi namoyon bo‘lish shakllarini alohida ta’kidlash zarur.

- a) demokratik jarayonlarning uzviyligi asosida milliy qadriyat sifatida shakllantirish;
- b) odamlarning tafakkuri va ijtimoiy-siyosiy saviyasi bilan demokratik o‘zgarishlar darajasini mutanosib bo‘lishiga erishish orqali;
- v) jamiyatdagi turli xil guruqlar qarashlarini yagona maqsad – “O‘zbekiston kelajagi buyuk davlat” degan milliy g‘oya asosida hamjihatilik, millatlararo totuvlik ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikni ta’minlash asosida;

g) demokratik jarayonlar xalqimizning qonunni hurmat qilishi, qonunga itoat etish kabi fazilatlariga mos ravishda rivojlanishini ta'minlash;

d) siyosiy munosabatlarda ham axloqiy, ma'naviy, milliy qadriyatlar ustuvorligiga erishish orqali umumbashariy demokratik tamoyillarni mamlakat fuqarosining turmush ehtiyojiga aylantirish va boshqalar.

Demak, milliy qadriyatlar umuminsoniy demokratik tamoyillar bilan uyg'unlashtirilsa, shundagina jamiyat taraqqiyotining rivojlanishida uning o'rni alohida ahamiyatga ega bo'ladi.

Konstitusiyamiz — jamiyat tayanchi va yurtimiz taraqqiyotining huquqiy kafolati, davlatimiz mustaqilligining yorqin ramzi, ko'p millatli xalqimiz xohish-irodasining qonuniy ifodasi hisoblanadi. Konstitusiyamiz xalqaro meyorlarga to'la mosligi bilan ham ahamiyatlidir. Asosiy Qonunimiz mamlakatimizda hukm surayotgan tinchlik, barqarorlik hamda millatlararo totuvlik, diniy bag'rikenglikning huquqiy asosi bo'lib xizmat qilayotgani bugun barchamizga ayon.

Umuman, Konstitusiyamizni yuksak huquqiy va ma'rifiy ta'lim dasturi, desak sira mubolag'a qilmagan bo'lamiz. Zero, unda davlat suvereniteti, xalq hokimiyatchiligi, qonun ustuvorligi to'liq aks ettirilgan. Aynan ushbu hujjat sharofati bilan o'zbek tiliga davlat maqomi berildi, davlat xalq irodasiga bo'ysundirildi, xalq hokimiyat manbai sifatida e'tirof etildi. Shunga mos holda ijtimoiy hayotda siyosiy institutlar, mafkura va fikrlarning xilma-xilligi kafolatlandi, inson hayoti, erkinligi, sha'ni, qadr-qimmati daxlsiz oliy qadriyat sifatida hayotimizdan o'zining qat'iy o'rmini topdi, ijtimoiyadolat va qonuniylik prinsiplari mustahkamlandi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev aytganlaridek: "Xalq davlat idoralariga emas, davlat idoralari xalqqa xizmat qilishi kerak".

Xulosa qilib aytganda, mamlakatimizda konstitusiya talablari asosida amalga oshirilayotgan keng qamrovli ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar bugungi kunga kelib o'z samarasini bermoqda. Buni inson huquq va manfaatlari to'liq ta'minlanayotgani hamda shunga mos ravishda fuqarolarning huquqiy bilim va madaniyati tobora yuksalib borayotganidan bilish mumkin. Asosiy Qonunimiz mohiyatiga yurtimizda kuchli fuqarolik jamiyatini shakllantirish hamda shu yurtda yashayotgan har bir insonning baxtli hayot kechirishlari uchun qulay zamin yaratish maqsadlari singdirilgan bo'lib, Konstitusiyamiz ushbu maqsadga erishishimizda mustahkam huquqiy asos bo'lib xizmat qilaveradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)

1. Milliy yuksalish strategiyasi fanidan o'quv – uslubiy majmua, Toshkent- 2023.
2. Karimov I.A. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. T3. –T.: «O'zbekiston» 1996.
3. N. Ortiqov Ma'naviyat: Milliy va umuminsoniy qadriyatlar, -T., “O'zbekiston”, 1997.
4. Arxiv .uz